



STEREOTIP TUSHUNCHASI VA OBRAZ YARATISH YO‘LLAR

Ro‘ziyeva Dilyayra Nurmurodovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi

“Tillarni o‘rganish” kafedrası ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola stereotip masalasi va badiiy adabiyotda obraz yaratish yo'llariga bag'ishlangan. Jamlash va prototip asosida yaratilgan obrazlarni adabiyotshunoslik fani shartli ravishda turlarga bo'lib o'rganishi alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu maqolada stereotip tushunchasi yana-da oydinlashtirilib yoritilgan. Maqolada, shuningdek, zamon va makon, milliy xarakter, adabiy tafakkur, lingvomadaniyatshunoslik kabi tushunchalar kiritilib, stereotiplar va obrazlarning shakllanishidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Yaratilgan obrazlarning tarixiy va madaniy kontekstdagi roli va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, badiiy asarlarda jamiyat va individning muvofiqligini aks ettiruvchi jihatlar ko'rib chiqiladi. Badiiy adabiyotda personaj va uning atrofidagi voqealar, lingvokultural o'zgarishlar va milliy xususiyatlar tasvirlangan holda, stereotiplar va obrazlar orasidagi farqlar, individual shaxsning jamiyatdagi o'rnini hamda uning o'ziga xosligi tahlil etiladi. Bunday tahlil orqali adabiyotda mavjud bo'lgan stereotiplarning inson tabiatini shakllantirishdagi o'rnini va ularning adabiy janrlarda aks etishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: zamon va makon, adabiy tafakkur, milliy xarakter, lingvomadaniyatshunoslik, stereotip, individuallashtirish, personaj, lingvokulturologiya.

Qadim zamonlardan, ya'ni ibtidoiy davrlardan buyon insonlar turli vositalar orqali o'zaro muloqot qilishgan. Dastlab, turli imo-ishoralar, tovushlar orqali muloqot amalga oshirilgan va asta-sekinlik bilan bu shakllar rivojlanib, so'zlashuv (verbal) kommunikatsiya



shakliga o'tgan. Bunda tilning paydo bo'lishi va uning asosida og'zaki nutqning shakllanishi, so'ngra yozma nutqning vujudga kelishi alohida ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq tovushlar va so'zlar yordamida ifodalansa, yozma nutq esa harflar va yozuv belgilari yordamida so'zlar, gaplar va matnlarni yaratadi.

Madaniyat ibtidoiy davrlarda inson va til kabi birlashgan tushunchalarga ega bo'lmagan, ammo asta-sekin madaniyat tushunchasi shakllanib, rivojlanib borgan. Insonlar tomonidan bildirilgan fikrlar albatta o'sha yoki bu tushunchani yoki ma'lum bir xalqning madaniyatiga xos bo'lgan g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Ushbu madaniyatni ifodalovchi tushunchalar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik, lingvokulturologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin. Tilda ifodalanagan madaniy tushunchalarni umumlashtirib, "stereotip" deb atash mumkin. Stereotip nima? "Stereotip – ma'lum bir guruh yoki jamoaning soddalashtirilgan, sxemalashtirilgan, emosional jihatdan rang-barang va uzoq vaqt davomida barqaror bo'lgan tasviri yoki biror madaniyat vakillarining til va tafakkuriga xos bo'lgan ifodadir." Stereotiplar milliy xarakter haqida obyektiv ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

V.A. Maslova tomonidan ta'riflanishicha, "stereotip – bu dunyoda mavjud bo'lgan tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va boshqa fenomenlarni o'lchaydi." Stereotiplar hech qachon alohida insonlarda yuzaga kelmaydi, ular har doim guruhlarda shakllanadi. "Stereotip" atamasi (yunoncha: stereos – qattiq, typos – iz) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan "Jamoat fikri" kitobida stereotiplarning jamoat fikrida qanday rol o'ynashini o'rganishga harakat qilgan. U stereotipni, bizning ongimizga yetib bormasdan oldin, his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan.

Stereotiplar, haqiqatda, ma'lum bir millatning umumiy ko'rinuvchi izi yoki xususiyati bo'lib, har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan, umumiy jihatdan madaniyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak:



- O‘zbek xalqi o‘ziga xos mehmondo‘st, mehribon, er yigitlari tantili, hamiyati baland, qiz va ayollari esa ibo-hayoli, nomusi o‘limdan qat’iy;
- Rus xalqi tavakkalchi, shartaki, ochiq muloqotni qabul qiluvchi;
- Qozoqlar ancha qayser va bir so‘zlik;
- Turk millati esa ta'sirchan, his-tuyg‘ularga beriluvchi;
- Xitoyliklar ancha takallufga boy, lag‘anbardorlarga moyil;
- Yaponiya xalqi esa xushmuomalali, madaniyatli, etiket qoidalariga qat’iy amal qiluvchi;
- Estonlar esa tabiatan sustkashlikka moyil;
- Italiyaliklar esa qiziquvchan, sal deganda lov etib yonuvchi;
- Inglizlar esa italiyaliklarning aksiga, sovuqqon, his-tuyg‘ularga berilishi qiyin;
- Nemislar esa butun dunyoga o‘zlarining "punctual"ligi, ya'ni tartibga qat'iy rioya qilishlari bilan tanilgan.

Yuqoridagi misollar, aynan tanlab olingan xalqlar stereotipi sifatida berilgan bo‘lib, bu parchalarni o‘qigach, ushbu xalqlar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Lingvokulturologiya esa aynan milliy stereotiplarga asoslanib, etnomadaniy tahlillarni o‘rganadi.

Stereotip tushunchasi har doim ham ijobiy emas. Masalan, M. Korduellning psixologiya lug‘atida stereotipga shunday ta'rif berilgan: "Stereotip – ma'lum guruh yoki kategoriyadagi keskin, ko‘pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiylikka moyil bo‘lganimiz uchun ham, boshqalar xulq-atvorini oldindan ko‘rish uchun stereotiplar shakllantiramiz. Bu stereotiplar ko‘pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvurlar va tahqirlash asosiga ega bo‘ladi."

Stereotiplar ko‘pchilik tomonidan qabul qilinganida, ular jamiyatga singib ketadi. Vaqt o‘tishi bilan stereotiplar o‘zgarishi mumkin, ammo stereotiplarining o‘zlashtirilgan tasavvurlardan qutulish qiyin bo‘ladi. Darhaqiqat, stereotiplar ijobiydan salbiyga, salbiydan ijobiyga o‘zgarishi tabiiy jarayon, ammo stereotiplar haqidagi dastlabki tushuncha mutlaq o‘zgarmaydi yoki o‘zgartirish qiyin.



Lingvokulturologiya sohasida stereotiplarni yanada aniqlashtirish va tahlil qilish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni ko'rib chiqish foydalidir. Stereotiplarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tushunish uchun, ular qanday shakllanishi, va bu shakllanishning ijtimoiy guruhlarining qabul qilingan me'yorlariga qanday mos kelishini o'rganish zarur.

Badiiylik — san'atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri — badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi. Adabiyot — insonshunoslik ekan, adabiy asardagi obrazlar hayotdagi kishilarning fe'l-atvorlari — xarakterlariga muvofiq kelishi, eng asosiysi, hayotiy bo'lishi talab qilinadi. Chunki adabiyotshunoslik ilmida «obraz» deganda inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to'qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi. «... Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo'q. Hammasi butunga buysungan, hammasi bitta maqsadga yo'naltirilgan, hammasi birlikda bitta go'zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi». Lekin «obraz» atamasi faqatgina san'atda ishlatilmaydi. Jumladan, falsafada hayotni inson ongidagi in'ikosini — obraz deb tushunish odat tusiga kirgan. «Fan — voqelik faktlaridan ularning mohiyatini, g'oyasini ajratib oladi» (V.G.Belinskiy), undagi obrazning maqsadi ana shu g'oya (tushuncha, muhokama, isbot, xulosa)ni ta'kidlash, ko'rgazmali tarzda yetkazishdir. Fandagi obraz voqea-hodisaning shunchaki tashqi ko'rinishi emas, balki ana shu ko'rinishlarning eng tipigi (o'rnakli misolini, eng arzirli namunasini)ni ifodalashga xizmat qiladi, u ko'rgazmali (illyustrativ) obrazdir.

Albatta, uning mohiyatida tipiklik (umumlashtirish) xislati bo'lsa-da, lekin voqelik faktlarini mubolag'ali tarzda ko'rsata olmaydi. Hayotda «obraz» atamasi yana boshqa bir ma'noda ishlatiladi, uni sur'atli (fotografik) obraz deb yuritish mumkin. U ham voqea-hodisani aks ettirishda eng xarakterli vaziyat va holatni tanlaydi. Uning asosida individullaishirish (xususiylik) xislati yaqqol ko'zg'a tashlansa-da, u orqali suratkash o'zining unga bo'lgan hissiy munosabatlarini bera olmaydi. Shu sababdan ham ularning ta'sir doirasi tor bo'ladi va barcha uchun zavq bera olmaydi, maftun etolmaydi. San'at va



adabiyotdagi obraz ularga nisbatan adadsiz ta'sirchan bo'ladi, chunki hayotiy voqea-hodisalar san'atkorning aql-tafakkuri, qalbi, ruhi, salohiyati bilan boyitiladi, ziynatlanadi, san'atkor «unga o'z idealini singdiradi va shunga ko'ra qayta yaratadi», «oqilona voqelikning bunyodkori» bo'ladi. Natijada bu obraz go'zalligi va ta'sirchanligi bilan millionlar qalbini zabt etadi. V.G.Belinskiy yozganidek, «bashar hayotining tepib turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shu'lasi va quyoshi»ga aylanadi. Chunki obraz jonli harakati, jozibadorligi va yorqinligi bilan o'zida voqea-hodisalarining qonuniyatini asosli va chuqur mujassam etadi.

Jamlash va prototip asosida yaratilgan obrazlarni adabiyotshunoslik fani shartli ravishda turlarga bo'lib o'rganadi. «Odamlar daryodek gap: hammasing suvi bir xil, hamma joyda o'sha suv, lekin daryo goh keng bo'ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq bo'ladi, goh loyqa, goh sovuq, goh iliq bo'ladi. Odamlar ham shunday...» (L. Tolstoy).

Shu sabab badiiy obrazlar juda ham rang-barang, turfa xilidir. Ijodiy metod taqozoiga ko'ra obrazlar romantik va realiztik bo'ladi. Romantik obrazlarda yozuvchi turmush haqidagi orzu va umidlarini tasvirlaydi. Bunday obrazlar, garchi yozuvchi yashab turgan jamiyatda bo'lsa-da, yozuvchi orzu qilgan voqelikning ifodasi hisoblanadi. Bunday obrazlar yuqori ko'tarinki ruhda jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham kuch-quvvatga, mo'jizaga ega qilib tasvirlanishi mumkin.

Xarakter xususiyatlari, faoliyati hayotdagi real odamlar bilan mos keladigan tarzda umumlashtirib va aniqlashtirib, tipik sharoitda haqqoniylashtirib yaratiladigan obrazlarga realiztik obrazlar deyiladi. Bunday obrazlarda ro'y-rostlik, chinlik yorqin ifodasini topadi.

Adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriy vositalarga ko'ra obrazlar quyidagicha bo'ladi:

1. Epik obrazlarda hayot voqealari keng va atroflichasiga tasvirlanadi. Voqeabandlik, obyektiv tasvir ustunlik qiladi. Epik turlarning hamma janrlarida yaratilgan obrazlar — epiklik xislatlarga ega bo'ladi.



2. **Lirik obrazda** voqelik inson kechinmalari (tuyg'ulari, hislari, o'ylari) orqali ifodasini topadi. Lirik turning janrlari (she'r, gazal, qasida, ruboiy, qo'shiq, ashula, yor-yor va sh.k.)dagi lirik qahramon (oshiq, yor, raqib) obrazi tipik misoldir.
3. **Dramatik obrazda** voqelik harakat orqali sahnada mujassam bo'ladi. Tragediya, komediya, drama, libretto, miniatyura kabi janrlarda yaratilgan obrazlar — dramatik obrazlar deb yuritiladi.
4. **Xayoliy-fantastik obrazlar** — haddan tashqari burchirilgan, ilohiylashtirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan qiyofalardir. Xalq og'zaki ijodi (doston, ertak)dagi uchar gilam, ur to'qmok, dev, ajina, jin obrazlari va sh.k.
5. **Afsanaviy obrazlar** — butunlay xayolning mevasi, ular bitmas-tuganmas qudratga, yuqori fazilatlariga, mo'jizaga ega bo'lishadi.

Badiiy ijod adabiy tafakkur shakllaridan biri bo'lib, inson uning bosh tasvir ob'ektidir. Bu ob'ekt tasviri mavjud olamning oliy xilqati bo'lmish insonni badiiy kashf etishga, uni muayyan zamon, makon va ijtimoiy-estetik ideal kontekstida ko'rsatishga qaratilgan ijodiy jarayondir. Bu jarayonda, tabiiyki, ijodkorning real voqelik va shaxs haqidagi qarashlarini, inson kechinmalari, orzulari, ruhiy olamini ma'lum estetik maqsadga muvofiq aks ettiradi. Adabiy-tarixiy talqindagi inson o'z xarakteri, ma'naviyati, ijobiy va salbiy jihatlari bilan turli davrlarga mansub kishilarning badiiy timsolidir. Zero, inson va jamiyat mavzusi keng ma'noda, umuman, adabiyotning asosiy mavzusi bo'lsa, Vatan va xalq manfaati yo'lida nom qozongan mashhur shaxslar va olamshumul voqealar tarixiy mavzu ob'ektidir. Bu mavzu silsilasida ijodkor tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlarning o'ziga xos o'rni bor. "Chunki har bir tarixiy shaxs, ayniqsa, tarixiy ijodkor shaxs qismatida tarixning uch tarkibiy qismi - o'tmishi, hoziri va kelajagi bir butun uyg'unlikda yashaydi".

Ijodkor shaxs talqiniga adabiy-tarixiy yondashuvda muallifning nuqtai nazari, adabiy qahramon xarakteri va bu xarakterga ijtimoiy muhit va an'analar ta'siri kabi omillarning alohida o'rni bor. Bulardan muallif pozitsiyasida shaxs va voqelik munosabatini yoritishdagi dunyoqarashi nazarda tutilsa, qahramon xarakterida shaxsning faoliyat ko'lami,



milliy va umuminsoniy mohiyati aks etadi, muhit va an'analarning o'rni esa xarakterda tarixiylik va zamonaviylikning bog'liqligi, badiiy tasvir va ifodalilikda muallif uslubining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

Badiiy ijodda tarixiy ijodkor shaxs konsepsiyasi talqinidagi ushbu etakchi tamoyillar o'zbek adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlarda o'z ifodasini topgan.

Ko'rinadiki, har bir tarixiy davrda vujudga kelgan asarlar shoir obraziga yondashuvda ijod shakllari (og'zaki va yozma) va janr rang-barangligi bilan farqlanadi hamda o'sha davrdagi ijtimoiy–estetik qarashlar ustuvorligi bilan izohlanadi.

Binobarin, shoir siymosi, avvalo, uning masnaviy va ruboiylaridagi qarashlari bilan birga gavdalanadi. Ammo adabiy obraz o'ziga asos bo'lgan tarixiy prototipga nisbatan qamrovliroq va badiiylashgan tushunchadir.

Adabiy-tarixiy asarlarda shaxs tasvirida og'zaki va yozma adabiyotga xos badiiy kashf etish xususiyatlari kollektiv va individual ijoddagi uslublarda ham voqe bo'ladi. Bundan tashqari, adabiy qahramonning monologik nutqi, dialoglar, xronologik syujet, folklor an'alaridan foydalanish, personajlar individualligi kabi kompozitsion qismlar tasvirida ham bir tomondan, xalq poetik ijodiga, ikkinchi tomondan yozma adabiyotga xos uslubiy o'ziga xoslik mavjuddir.

Adabiyotshunoslikda badiiy asarlardagi Navoiy, Ulug'bek va Bobur obrazlari faoliyatida ko'pqirralik va rang-baranglik mavjudligini hamda ular harakatda, kurashda chiniqib, takomillashib, rivojlanib boruvchi dinamik obrazlar ekani alohida ta'kidlagan edi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni jamlasak, bitta xulosa kelib chiqadi: adabiyotga hayotdagi hamma (inson, narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik; ko'chma ma'nodagi so'zlar iboralar, leksik resurslar; ifoda — tasvir vositalari — mubolag'a, kichraytirish, o'xshatish, omonim, sinonim, anto- nimlar; anafora, epifora, asindenton va sh. k.) unsurlar kirar ekan, kirganda ham san'atkor ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhimi insoniashib va bir butunlik kasb etib muhrlanar ekan — ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoshimov, A. (2017). Adabiyotshunoslik va badiiy tafakkur. Tashkent: Akademnashr.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. -B. 194.
3. Samandar E. Tarix va talqin // Sharq yulduzi. –Toshkent, 2003. - №1. -B.89-90.
4. Abdulhakim M. Tazarru // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2003. - 16 may.
5. Mackie, Diane M.; Hamilton, David L.; Susskind, Joshua; Rosselli, Francine (1996). "[Social Psychological Foundations of Stereotype Formation](#)". In MacRae, C. Neil; Stangor, Charles; Hewstone, Miles (eds.). Stereotypes and Stereotyping. New York: Guilford Press. pp. 48–49. [ISBN 9781572300538](#)
6. Devine, Patricia G.; Monteith, Margo J. (1999). "[Automaticity and Control in Stereotyping](#)". In Chaiken, Shelly; Trope, Yaacov (eds.). Dual-Process Theories in Social Psychology. New York: Guilford Press. pp. 341–342. [ISBN 9781572304215](#).
7. Saidov, A. (2020). Milliy xarakter va adabiyotda stereotiplar. Tashkent: Milliy universitet nashriyoti.
8. Buxoroev, A. (2013). Adabiyot va stereotiplar: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Universitet nashriyoti.
9. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha- o‘zbekcha izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1979. -B. 336.